

DEHQON XO'JALIKLARIDA QORAMOL GO'SHTI ISHLAB CHIQRISHGA MAHASULDORLIKNI TA'SIRI

Qalandarov Ravshan Husanovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Annatsiya

Samarqand viloyatining 567 dehqon xo'jaliklarida chorvachilikka oid so'rovnoma ma'lumotlari bo'yich tahlil amalga oshirilgan. Dehqon xo'jaliklarida mavjud qoramollarni mahalliy va mahsuldor qoramollarga ajratib, alohida go'sht uchun boqib sotishdan, qoramol (tana, novvos, g'unajin, sigir (buzog'i bilan biraga) sotishdan, qoramollardan buzoq va sut sotishdan olingan daromad ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Dehqon xo'jaliklari, qoramolchilik, mahalliy qoramollar, mahsuldor qoramollar, daromad.

Mavzu dolzarbligi

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishda dehqon xo'jaliklari o'rnining yuqoriligini chorvachilik tarmog'ida ham ko'rish mumkin. Dehqon xo'jaliklarida chorvachilikni rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga tobora katta ahamiyat kasb qilayotgani hamda realizatsiya qilishda xo'jaliklar kesimida etakchilik qilmoqda. Dehqon xo'jaliklarining asosiy yoki qo'shimcha daromad manbai sifatida chorvachilikdan foydalanishadi.

Samarqand viloyatida chorvachilik mahsulotlaridan go'sht va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqish dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Chunki, dehqon xo'jaliklarida chorva mollarini bosh soni ortishi bilan bog'liq. Dehqon xo'jaliklarida qoramol, quy boqish va sigirlar sonini ko'paytirish aholiga ko'proq daromad keltirmoqda. Dehqon xo'jaliklari aholisi asosan chorva mollarini dalalarga va yaylovlarga chiqarmagan holda uy sharoitida boqishadi.

L.E. Omonovani ta'didlashicha "Chorvachilik boylik yoki obro' belgisi sifatida unumdor mulk sifatida boshqa tirikchilik yoki bola parvarishi bo'yicha majburiyatlarga xalaqit bermaydigan yarim kunlik daromad" hisoblanadi. Shuning uchun, dehqon xo'jaliklarida chorvachilik tarmoqlari yaxshi rivojlangan.


Samarqand viloyatida qishloq xo'jalik mahsulotlaridan chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqishda statistik o'rganishlar natijasida dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi katta ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Go'sht ishlab chiqarishda dehqon va tomorqa xo'jaliklari 2016 yilda 237,3 (tirik vaznda) ming tonna, ulushi 91,97% ni tashkil etgan, 2022 yilda 253,6 (tirik vaznda) ming tonna, ulushi 80,96% ni tashkil etmoqda. 2016 yilda go'sht ishlab chiqarishda viloyatdagi ulushi 3,32% yoki 8,6 (tirik vaznda) ming tonnani tashkil etgan bo'lsa fermer xo'jaliklarida, 2022 yilga kelib 46,4

(tirik vaznda) ming tonna yoki ulushi 14,81% ga etgan. Qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari viloyatda jami go'st ishlab chiqarishni 2016 yilda 4,71% yoki 12,1(tirik vaznda) ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda 13,2 (tirik vaznda) ming tonna yoki viloyatdagi ulushi 4,2% ni tashkil etmoqda¹.

Chorvachilikning qoramolchilik yetakchi sohasi bo'lib, aholini sut va go'sht mahsulotlariga, yengil sanoatni teri xomashyosi hamda dehqonchilikni organik o'g'it bilan ta'minlaydi. Sh.A.Karimov va T.O.Karimovlarning ta'kidlashicha "Yer yuzida yashaydigan aholini sutga bo'lgan talabining 97 %, go'shtga bo'lgan ehtiyojini esa 50 % ni ayni shu soha ta'minlaydi. Bu ko'rsatki O'zbekistonda mos ravishda aholini sutga bo'lgan talabining 99 % va go'shtga bo'lgan ehtiyojini esa 75 % ga to'g'ri keladi".

Go'sht va go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish uchun chorvachilikda mahsuldorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda mahsuldorlikni oshirishning asosiy maqsadi yuqori daromadlarga erishish va ishchi kuchi kam joylarda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Buning natijasida xo'jaliklarda kamroq ishchi bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi, natijada daromad yaxshilanadi. Raqamlarga e'tibor qaratsak dunyo bo'yicha bir bosh so'yilgan vaznda 2016 yilda 206,4 kg, 2021 yilga kelib bu ko'rsatkich 218,6 kgni tashkil qilmoqda. Markaziy Osiyoda bu ko'rsatkich biroz pastroq, ya'ni 2016 yilda 187,70 kg, 2021 yilda 186,0 kg. O'zbekistonda 2016 yilda dunyo ko'rsatkichidan 21,7kg past bo'lgan, ya'ni 184,7 kg, 2021 yilga kelib 38kgga kamayib 180,8kgni tashkil etgan.



1- Rasm. Go'sht mahsuldorligi- bir bosh so'yilgan vaznda, kg²

Dehqon xo'jaliklarida qoramolchilik yil davomida oziq-ovqat mahsulotlar oqimini ta'minlash bilan bir qatorda qishloq joylarda millionlab aholini bandligini va daromadlarini ta'minlash o'simliklar uchun energiya manbai va pul xavfsizligi hisoblanadi. Chorvachilikdan keladigan

¹ O'zbekiston Respublikasi statistik boshqarmasi ma'lumotlari. 2022 yil


² <https://ourworldindata.org/meat-production> dan umumlashtirilgan ma'lumotlar.

daromadlarni oshirishda chorvachilikni mahsuldorligi alohida o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda kichik xo'jaliklar chorvachilik mahsulotlarini katta qismi uchun mas'uldurlar (FAO, 2015, IFAD 2015, Jahon banki, 2007). Chorvachilikda qoramolchilikning mahsuldorligi bu tarmoqni oshirish rivojlanishidan dalolat beradi.

Chorvachilikni muvaffiqiyatli amalga oshirilgan taqdirda, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishning mahsuldorligi, xizmat ko'rsatish va xizmat ko'rsatishning o'sishi doimiy ravishda o'sib boradi deb hisoblaydi xorijlik olim Hans E. Jahnke. O'zbekistonda chorvachilik mahsuldorligi yilda-yilga pasyib borishini ko'rishimiz mumkin. Bu qoramolchilikda go'sht ishlab chiqishning o'sishi faqat qoramollar bosh sonini oshishi hisobiga qoplanayotganidan dalolat beradi. Bu chorvachilikni mahsuldorligidan olinadigan daromadlarni kamayishiga, xarajatlarni oshishiga olib keladi, natijasida aholi daromadlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Natijalar va tahlillar

Qoramolchilikda go'sht ishlab chiqarishga oziqa bazasining ta'siri bilan bir qatorda mahsuldorlik ko'rsatkichlari ham katta ta'sir qiladi. Samarqand viloyatining dehqon xo'jaliklaridan chorvachilikka oid o'tkazilgan so'rovnomalar tahlillari amalga oshirildi. So'rovnomada 567 nafar dehqon xo'jaliklarning vakillari qatnashdi. So'rovnomalarda ma'lumotlar to'liqligi inobatga olinib 552 nafar so'rovnoma natijalari tahlil qilindi. Tahlilimizda qoramollarni mahsuldor qoramollar va mahalliy qoramollardan olinadigan daromadlar ko'rsatkichlarini tahlil qildik.



2-Rasm. Dehqon xo'jaliklarida mahalliy va mahsuldor qoramollardan olindigan daromad ko'rsatkichlari³

Dehqon xo'jaliklarida qoramollarni mahalliy va mahsuldor qoramollar guruhlariga ajratib oldik. Bu ikki guruh qoramollaridan olingan daromadlarni burdoqiga boqilgan qoramollarni sotishdan, qoramollarni (tana, novvos, g'unajin, sigir (buzog'i bilan biraga) sotishdan,

³ Dehqon xo'jaliklardan olingan so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

qoramolchilikda buzoq va sut olgandagi daromad ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil qilindi. Mahsuldor qoramollardan buzoq va sut sotishdan olinadigan daromadlar, mahsuldor qoramol (tana, novvos, g'unajin, sigir (buzog'i bilan biraga))ni sotishdan olingan daromaddan 361,5 ming so'm ko'p daromad olishi aniqlandi. Vaholanki, mahsuldor qoramollarni alohida go'sht uchun boqib sotganda mahalliy qoramollarga nisbatan 6954,2 ming so'm ko'proq daromad keltiradi. Mahsuldor qoramol (tana, novvos, g'unajin, sigir (buzog'i bilan biraga) ni sotishdan olingan daromad, alohida gosht uchun boqilgan mahsuldor qoramollarga nisbatan 2516,9 ming so'm kam daromad keltirishini ko'rishimiz mumkin. Mahalliy qoramolchilik bilan shug'ullanayotgan dehqon xo'jaliklarida alohida gosht uchun parvarishlayotganlarda daromad yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa

Dehqon xo'jaliklarida mahsuldor qoramollarni va mahalliy qoramollarni alohida go'sht uchun boqish boshqa yo'nalishlarga qaraganda ko'proq daromad kelrinishini ko'rishimiz mumkin. Dehqon xo'jaliklarida qoramolchilikni rivojlantirishning asosiy sabablaridan deb quyidagilarni hisoblaymiz:

- aholining keng qatlamlamini go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini mahsulot turlari, hajmi va sifati bo'yicha ichki ishlab chiqarish hisobiga ta'minlash;
- olish qishloq va qishloq aholisini ish bilan ta'minlash;
- qishloq xo'jalik yerlaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda daromadlarini oshirish;
- chorvachilik tarmog'ida go'sht importiga qaramlikni kamaytirishga imkon beradi.

Demak, yuqoridagi tahlillarimizga muvofiq dehqon xo'jaliklarda mahsuldor qoramollarni ko'paytirish oila daromadlariga sezilarli darajada foyda olib keladi. Qoramollarni alohida go'sht uchun boqish aholi daromadlarini oshiradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L.E.Omanova "Chorvachilikda qo'shilgan qiymat zanjiri tahlili (Samarqand viloyati misolida)" EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES Volume 2 Issue 13, December2022.
2. Karimov Sh.A., Karimov T.Q., "Qishloq xo'jaligida chorvachilikni tutgan o'rni". Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent. 10 may.2021 yil
3. HANS E. JAHNKE "LIVESTOCK PRODUCTION SYSTEMS AND LIVESTOCK DEVELOPMENT IN TROPICAL AFRICA" KIELER WISSENSCHAFTSVERLAG VAUK 1982.
4. <https://ourworldindata.org/meat-production>
5. O'zbekiston Respublikasi statistik boshqarmasi ma'lumotlari. 2022 yil.